


ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000

# JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 2, ISSUE 2 **2024**



ISSN 2181-0000  
Doi Journal 10.26739/2181-0000



# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2



TOSHKENT-2024

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2024-2>

Бош мухаррир: | Главный редактор:  
Chief Editor:

**Urazbayeva Dilbar Abdullayevna**  
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель  
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

**Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich**  
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

## TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

### FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

**Axmedov Oybek Saporboyevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**O'rozboyev Abdulla Durdibayevich**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Ma'mun Universiteti NTM

**Kalandarov Oybek Ruzimbayevich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Yakubov Muzaffar Kamildjanovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Samarqand davlat chet tillari instituti

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

**Samandarova Lola Sultanovna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich**

Filologiya fanlari doktori (DSc)  
Urganch davlat universiteti

**Ruzmetov Surojbek Allaberganovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

**Yakubova Matluba Tajibayevna**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch davlat universiteti

### FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

**Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Ma'mun Universiteti NTM

### TARIX FANLARI

**Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev**

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar  
akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Ashirov Adhamjon Azimbayevich**

Tarix fanlari doktori, professor,  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**Goncharov Yuriy Mixaylovich**

Tarix fanlari doktori, professor

Altay davlat universiteti Rossiya

**Shaydurov Vladimir Nikolayevich**

Tarix fanlari doktori, dotsent  
Leningrad davlat universiteti Rossiya

**Abdullayev Utkir Ismoilovich**

Tarix fanlari doktori (DSc),  
dotsent Urganch davlat universiteti

**Matkarimova Sadoqat Maqsudovna**

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdullayev Timur Pulatovich**

Tarix fanlari nomzodi, dotsent  
Ma'mun Universiteti NTM

**Abdalov Umidbek Matniyazovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

**Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna**

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Urganch davlat universiteti

**Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Urganch pedagogika instituti

### PSIXOLOGIYA FANLARI

**Shoumarov G'ayrat Baxromovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik  
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

**Kryukova Tatyana Leonidovna**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

**Karpinskiy Konstantin Viktorovich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Grodno davlat universiteti Belorusiya

## **IQTISODIYOT FANLARI**

### **Ruzmetov Baxtiyar**

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ma'mun Universiteti NTM

### **Sherov Alisher Bakberganovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

### **Voronsova Yuliya Vladimirovna**

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

### **Jabborov Umarbek Rustambekovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Cho'ponov San'at Otanazarovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Niyazmetov Islambek Masharipovich**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

## **PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI**

### **Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Matnazarov Javlanbek Kabulovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Adilov Zafar Yunusovich**

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Slepko Yuriy Nikolayevich**

Psixologiya fanlari doktori, professor  
Yaroslav davlat pedagogika universiteti

### **Xazova Svetlana Abduraxmanovna**

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma  
davlat universiteti Belorusiya

### **Kalandarova Madina Baxadirovna**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

### **Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna**

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

## **TIBBIYOT FANLARI**

### **Yuldashev Baxrom Sobirjanevich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

### **Abdullayev Ravshanbek Babajonovich**

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Esamuratov Aybek Ibragimovich**

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Samandarova Barno Sultonovna**

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Tajiyeva Zebo Baxodirovna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Nazarova Maloxat Berdiboyevna**

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

### **Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna**

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

## **ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI**

### **Sultanov Samandar Maxmud o'g'li**

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

**FILOLOGIYA**

<b>1. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ СРАВНЕНИЙ КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	8
<b>2. Murodov G‘ayrat Nekovich</b> EPOS VA ROMAN: ADABIY-BADIY BOG‘LANISHLAR.....	13
<b>3. Чупонов Отаназар Отажонович</b> РУКОПИСНЫЕ КНИГИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК.....	20
<b>4. Худайбергенова Умида Комилджановна</b> СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЭРГОНОМОВ.....	26
<b>5. Pardayeva Sojida Ahmatovna</b> WHAT IS PRAGMALINGUISTICS IN LINGUISTICS?.....	34
<b>6. Зеленина Тамара Ивановна, Тойкина Ольга Владимировна</b> МНОГОЯЗЫЧИЕ И МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РАЗНОСТРУКТУРНЫХ ЯЗЫКОВ.....	39
<b>7. Tursunbaeva Gulruh Mukhametovna</b> SELECTED FEATURES OF FILM TRANSLATION AS THE KEY ISSUE IN ACQUIRING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE.....	45
<b>8. Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna</b> INSON TANA A‘ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	51
<b>9. Маркин Владимир Васильевич, Маркина Полина Владимировна</b> СОЦИОКУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ: СУЩНОСТЬ И ФУНКЦИИ.....	58
<b>10. Ашимханова Светлана Ашимхановна, Абдуллаева Айнур Аскарровна</b> РОЛЬ МЕТАФОР КАК ОБРАЗНОЕ СРЕДСТВО В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ.....	64
<b>11. Абдиева Камола Аслидин кизи</b> ОСНОВНЫЕ ЧЕРТЫ СОВРЕМЕННОГО ЭЛЕКТРОННОГО КОРПУСА.....	70

**IQTISODIYOT**

<b>1. Xaydarov Ixom To‘xtayevich</b> SUG‘URTA SOHASIGA OID TERMINLAR TAHLILI.....	76
<b>2. Кипкеева Асият Магомедовна</b> ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА РОСТ И РАЗВИТИЕ СТРАНЫ.....	81
<b>3. Annazarova Barno Rustamovna</b> RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINI RO‘YHATGA OLISH JARAYONLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH HOLATINING TAHLILI.....	86

## PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA

- 1. Ибраимов Холбой Ибрагимович**  
ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ИНКЛЮЗИВ ТАЪЛИМ МУАММОЛАРИ ВА  
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ.....92
- 2. Urazbaeva Dilbar Abdullaevna**  
SUT BEZI SARATONI TASHXISLI BEMORLARDA KASALLIKKA MUNOSABAT TIPI  
NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....97
- 3. Kalandarova Madina Bahadirovna**  
PERINATAL PSIXOLOGIYADA PSIXODIAGNOSTIK METODIKALARNI QO‘LLASH....105
- 4. Хазова Светлана Абдурахмановна, Рукавишников Дина Рафаиловна**  
СВЯЗЬ ОТНОШЕНИЯ К БОЛЕЗНИ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ  
ЖЕНЩИН, ПЕРЕНЕСШИХ ХИРУРГИЧЕСКОЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВО ПО ПОВОДУ  
РАКА МОЛОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....111
- 5. Jumaniyazova Imira Kamiljanovna**  
INSULT KASALLIGINING TIBBIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY  
VA AMALIY TAHLILI.....117
- 6. Sadikova Umida Botirovna**  
QANDLI DIABET KASALLIGI TASHXISI QO‘YILGAN BEMORLARNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....123
- 7. Парфёнова Татьяна Вячеславовна**  
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ЛИЧНОСТНЫХ  
ИЗМЕНЕНИЙ КОСВЕННЫХ СВИДЕТЕЛЕЙ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО  
МАКРОСОЦИАЛЬНОГО СОБЫТИЯ.....128
- 8. Kasimova Xulkar Atabayevna**  
NOGIRONLIGI BO‘LGAN TALABALARNING KOPING STRATEGIYALARI  
BO‘YICHA OLINGAN NATIJALARNING PSIXOLOGIK TAVSIFI.....132
- 9. Силина Елена Алексеевна, Крюкова Татьяна Леонидовна**  
СОЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О НАСИЛИИ В ОТНОШЕНИЯХ ПАРТНЕРОВ.....138
- 10. Jumaniyozova Nasiba Ramatillayevna**  
AUTIST BOLALAR BILAN ISHLOVCHI MUTAXASSISLARDA PSIXOLOGIK  
STRESSNING NAMOYON BO‘LISHI.....144
- 11. Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna, Fozilova Sabohat Nodir qizi**  
PEDAGOGLARDA KASBIY ZO‘RIQISHNI NAMOYON BO‘LISHI VA UNI  
KORREKSIYASI.....149
- 12. Qurbonova Shaxloxon Bahodirovna**  
GENDER IJTIMOIVLASHUV TUSHUNCHASI VA DIFFERENSIAL FARQLARNING  
O‘ZIGA XOSLIGI.....155

## TIBBIYOT


- 1. Abdullayev Ravshanbek Babajonovich, Bakhtiyarova Aziza Maqsudbekovna**  
CLINICAL CHARACTERISTICS OF PEPTIC ULCER DISEASE IN ELDERLY RESIDENTS  
OF THE KHOREZM REGION.....161
- 2. Назарова Малохат Бердибаевна, Адилбеква Дилором Бахтиёровна**  
ВЛИЯНИЕ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА МАТЕРИ НА СОСТОЯНИЕ  
ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА.....166

## TARIX

- 1. Mustafa Demirci**  
THE GREAT SCHOLAR OF THE MAMUNIDS PALACE: ‘ABU SAHL ISĀ B. YAḤYĀ AL  
MASĪNĪ, THE TEACHER OF IBN SĪNA AND BĪRUNĪ, AND HIS UNDISCOVERED  
SCIENTIFIC HERITAGE.....172
- 2. Нодира Кадамовна Нуруллаева**  
ГОСУДАРСТВО МАЪМУНИДОВ: МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И  
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ.....184
- 3. Лухманова Зарина Талибовна**  
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ: МЕТОДИКА РАСЧЕТА.....191
- 4. Ashirov Adhamjon Azimbayevich, Karimov Umrbek Davronbekovch**  
O‘ZBEK XALQINING EKIN-TIKINCHILIK MAROSIMLARIDA DINIY VA MILLIY  
QADRIYATLAR SIMBIOZI.....209
- 5. Matkarimova Sadokat Maksudovna**  
XX ASR OXIRI – XXI ASR BOSHLARIDA TAOMLANISH MADANIYATI  
TARAQQIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR.....215
- 6. Masharipova Gularam Kamilovna**  
ABU RAYHON BERUNIY VA ABU ALI IBN SINO ASARLARINING XORIJDIFI  
NUSXALARI HAQIDA.....220
- 7. Ғайбулла Бобоёрв Боллиевич, Шоҳрухмирзо Исмоилов Закиржон ўғли**  
АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ “ОСОР УЛ-БОҚИЙА” АСАРИДАГИ ЎҒУЗ ТУРКЛАРИ  
БОШҚАРУВЧИЛАРИНИНГ УНВОНИ “ХОНУВТА”МИ ЁКИ “ЖАБҒУЙА”?.....231
- 8. Abdalov Umidbek Matniyazovich, Pulatov Muhridin**  
XORAZMSHOHLAR DAVLATIDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MUNOSABATLARGA OID  
BA’ZI MASALALAR.....236
- 9. Egamberdieva Nigora Azadovna**  
O‘ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK SHAKLLANISHINING OMILLARI VA TARIXIY  
ILDIZLARI.....242
- 10. Davlatova Saodat Tilovberdiyevna, Matkarimova Nazokat Maksudovna**  
МАЪМУНИЙ ХОРАЗМШОҲЛАР ДАВЛАТИНИНГ “ОЛТИН ДАВРИ”  
ВА МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ ОЛИМЛАРИНИНГ МУСИҚА ИЛМИ  
СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ.....249

**Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna,**  
Filologiya fanlari doktori, professor  
Buxoro davlat universiteti

## INSON TANA A'ZOLARI HAQIDAGI TOPISHMOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.12515446>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola inson tana a'zolari haqidagi topishmoqlarning lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor tarkibida somatizm yashiringan va uchraydigan topishmoqlar tahliliga qaratilgan. Mavzu bo'yicha muallif tilshunoslarning tadqiqolarini p'rgangan holda o'zining fikrlarini aniq misollar vositasida dalillay olgan.

**Kalit so'zlar:** somatizm, topishmoq, lingvopoetik xususiyat, guruh.

---

**Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna,**  
Doctor of Philology, Professor  
Bukhara State University

## LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF RIDDLES ABOUT THE PARTS OF THE HUMAN BODY

### ABSTRACT

This article is dedicated to the analysis of linguopoetic features of riddles about human body parts. The main focus is on the analysis of riddles in which somatism is hidden and encountered. The author studied the researches of linguists on the subject and was able to prove his ideas by means of specific examples.

**Keywords:** somatism, riddle, linguopoetic feature, group.

---

**Гадоева Мавлюда Ибрагимовна,**  
Доктор филологических наук, профессор  
Бухарский государственный университет

## ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЗАГАДОК О ЧАСТЯХ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ТЕЛА

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу лингвопоэтических особенностей загадок о частях тела человека. Основное внимание уделяется анализу загадок, в которых скрыт и встречается соматизм. Автор изучил исследования лингвистов по данной теме и смог доказать свои идеи на конкретных примерах.

**Ключевые слова:** соматизм, загадка, лингвопоэтический признак, группа.



## KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Topishmoqlarning mavzusi keng va rang-barangdir. Inson tana a'zolari haqidagi topishmoqlar uning alohida mavzuiy bir guruhini tashkil qiladi. Ular ko'pincha odam va uning tana a'zolari nomini o'zida yashirib keladi.

Topishmoqlar dunyo xalqlari folklorida mavjud umumfolklor janrlaridan biri bo'lgani uchun ularda somatizmlarning ifodalanishida bir xilliklar mavjudligi kuzatiladi. Bunda ko'pincha metaforik ko'chimlarning umumiyligi, o'xshashligi e'tiborni tortadi.

## METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.

Bizningcha, tarkibida somatizmlar bor-yo'qligiga qarab yoki o'zi somatizm haqida yaratilgan topishmoq ekanligiga ko'ra, topishmoqlarni uchga bo'lib o'rganish mumkin: Muayyan somatizm yashiringan topishmoqlar. Tarkibida somatizm berilgan topishmoqlar. Tarkibida somatizm uchramaydigan topishmoqlar.

## TADQIQOT NATIJALARI.

Xuddi shunday holat ingliz topishmoqlarida ham kuzatiladi. Ingliz tilida topishmoq atamasi "Riddle" deb yuritiladi. Qolaversa, ingliz tilida ayrim topishmoqlarning bevosita "Riddle me, riddle me", ya'ni "Meni top, meni top" degan chorlov, da'vat bilan boshlanishi alohida e'tiborni tortadi:

**Riddle me, riddle me**, what is that

Over the **head** and **under** the hat?

Ushbu topishmoqda "**head**"/ **bosh** hamda **under**/ **shlyapa** (bosh kiyimi) nomlarining tilga olinayotgani yashiringan narsa nomi **hair/soch** ekaniga ishora qilib turibdi.

Ba'zi topishmoqlar savol ko'rinishida shakllantirilgani bilan diqqatni tortadi. Shuning uchun ularning tarkibida so'roq olmoshlari alohida o'rin egallaganligi ko'rinadi:

Never planted, Still it grows. What's the answer? Now who knows?

Javobi soch bo'lgan bu topishmoqda soch ekilmagan, ammo unib chiqqan o'simlikka o'xshatilgan.

Ayrim somatik nomlarga tabuistik munosabat topishmoqlarda yorqin ko'zga tashlanadi. Jumladan, inson tana a'zolarining nomini ochiq-oshkora aytmaslik tabusi ularni topishmoqlarda turli ko'rinishda aytishni keltirib chiqargan. Bu esa xalq topishmoqlarning qadimda o'zgacha ahamiyatga ega bo'lganligini anglatadi.

Ma'lumki, topishmoqlar bir predmetli yoki ko'p predmetli bo'ladi. Xuddi shuningdek, bitta topishmoqda bir somatizm yoki birdan ortiq somatizm uchrashi mumkin. Masalan:

Bir to'pada yetti teshik. (Bosh, og'iz, burun, ko'z va quloq).

There are 7 holes in a ball. (Head, mouth, nose, eye, ear).

Ushbu topishmoqda bosh – "**to'ba**", ya'ni o'yinchoq to'piga o'xshatilgan. Undagi og'iz, burun, quloq teshikchalardan iboratligi aytilgan.

Topishmoqlar orasida bir somatizm asosida yaratilgan bir necha topishmoq variantlari ham uchraydi. Masalan, birgina ko'z haqida bir necha topishmoq yaratilgan.

**1-topishmoq:** Tom ustida qo'sh chiroq. (Ko'z). Uning "Chang'araqda qo'sh chiroq" varianti ham bor.

Bu topishmoqlarda ko'z somatizmi chiroqqa o'xshatilgan va ikki ko'z – qo'sh chiroq metaforasi bilan berilgan. Bunda ko'z va chiroq – bog'lanishiga har ikkalasining nur tushunchasi bilan bog'lanishi asos bo'lgan.

**2-topishmoq:** "Bir ola chilbirim bor, U tog'dan bu toqqa yotadi". (Ko'z).

**3-topishmoq:** "Oxurda ola buzoq o'ynaydi". (Ko'z).

Ko'rinyaptiki, bu topishmoqda ko'z ola buzoqqa o'xshatilmogda.

**4-topishmoq:** "Ola kabutar. Topilmas gavhar". (Ko'z).

Shunisi e'tiborliki, 2-, 3-, 4- topishmoqlarda ko'z olachilbirga, olabuzoqqa, ola kabutarga o'xshatilmogda. Bunda ola so'zi rang-tus bildiruvchi sifat bo'lib, oq-qora ranglardan iborat. Ba'zan ko'zga nisbatan "ko'zini ola-kula qilmoq" iborasini ishlatishda ham shunga ishora mavjud.

Mazkur topishmoqda ko‘z somatizmi ham ingliz tilida, ham o‘zbek tilida ikki aka-uka, ya’ni ikki og‘a-iniga o‘xshatilgan. Jumladan:

Two brothers live across a path, but never see each other. (Eyes.)

Two brothers, But they don't see each other. (Eyes.)

Brother left and right, hardly ever see each other.

Mirror is the only place where they’re coming face to face (eyes).

Ko‘rinyaptiki, ko‘z haqidagi inglizcha topishmoqlarning aksariyatida ko‘z ikki aka-ukaga qiyoslangan, lekin ular bir-birini ko‘ra olmasligi, chunki ayri-ayri joylashgani ta’kidlanmoqda.

What two things can always see what the other sees,

But can never see each other?” (Eyes).

Bu topishmoq ham ko‘z haqida bo‘lib, u xuddi o‘zbek topishmoqlaridagi kabi “U nima ikki narsaki” degan savol bilan boshlangani jihatidan e’tiborni tortadi. So‘ngra bu ikki narsa ko‘rishga mo‘ljallangani, bir-birini ko‘ra olmasligi aytilmoqda. Shundan uning ko‘z haqidagi topishmoq ekani oydinlashadi.

Shuni anglash mumkinki, ko‘z haqidagi topishmoqlarda ko‘pincha ularning harakatiga ma’no qaratiladi. Masalan:

Kechasi yopiq, kunduzi ochiq. (Ko‘z). Kunduzi yonar, kechasi so‘nar. (Ko‘z).

Qarichdan yaqin, Osmondan uzoq. (Ko‘z).

Ko‘zning bu kabi ta’rif-tavsifi ingliz topishmoqlarida ham kuzatiladi:

The doors are open in the morning but shut at night.

If you look into them, you see yourself inside. (Eyes).

Ushbu topishmoqlarda ko‘zning kechasi inson uxlaganida yumilishiga, kunduzi uyg‘onganida esa ochilishiga, ikki ko‘z bir-biriga yaqin masofada joylashgan bo‘lsa-da, bir-birini ko‘rmasligiga ishora qilinmoqda.

Topishmoqlarda ko‘z rangiga ko‘ra goh ola buzoqqa, yumaloqligiga qarab nok mevasiga, qorachiqdari esa no‘xatga qiyos qilib olingani kuzatiladi. Uning atrofidagi kipriklar sharshara va uning oqishiga o‘xshatiladi. Ola kabutar noyobligi bilan ajralib turgani kabi ko‘zning gavhari shu qushga qiyoslangani ham kuzatiladi.

This thing has some lashes. But it is not a whip. It’s able to be closed

But it is not a zip. It’s part of your body. But it is not a hip.

There are two on your face. But it is not a lip. (Eye).

Bu topishmoqda kiprik qamchiga, ko‘zning ochilib yumilishi o‘qning otilishiga mengzalgan.

Ayrim topishmoqlarda ko‘z bilan kiprikning juftlikda yashirin berilgani kuzatiladi. Bu haqda ham bir necha topishmoqlar yaratilgan.

Atrofi chakalakzor, O‘rtasi yorug‘ yulduz. (Ko‘z bilan kiprik).

E’tiborli jihati shundaki, bunday holatni ingliz topishmoqlari misolida ham kuzatish mumkin:

Around forest, a bright star in the middle. (Eye with eyelashes).

Ushbu topishmoqda kipriklar chakalakzor, ko‘zlar esa yorug‘ yulduz sifatida ta’riflangan. Bunda ko‘z bilan kiprikka ishora qiluvchi asosiy kalit (ishora qiluvchi) so‘zlar **chakalakzor** va **yulduz** so‘zlaridir. Chakalakzor – kiprikka, yorug‘ yulduz esa ko‘zga nisbatan hissiy manba sifatida tanlangan.

**Qosh** haqidagi topishmoqlar u qadar ko‘p emas. Ularda ko‘pincha qoshning yoyga o‘xshatilgani ko‘zga tashlanadi:

Uy ustida sari yoy. (Qosh).

Qosh to‘g‘risidagi topishmoqda qosh yoyga, aniqrog‘i, uy ustidagi uch kunlik oyga ham qiyoslangan.

**Burun** haqidagi topishmoqlarda ko‘pincha burun bitta bo‘lsa ham, teshigi ikkita ekanligiga alohida e’tibor qaratiladi. Shu asosda u haqdagi topishmoq javobi tez topiladi:

Ustida ikki darcha, O‘rtasida bir kunda. (Burun).

Burun haqidagi inglizcha topishmoqlarda ham uning uzunchoq bir kundadagi ikki teshikdan iboratligi ifoda etiladi. Shuningdek, u obrazlantirilib, ikki teshigi mayda dumaloq oyga o‘xshatilgan:

Between two little moons I am quite alone. (A nose).

Quyidagi topishmoqda burun teshiklari g'orga o'xshatilgan:

A hole leading in, a hole leading out, we connect to a cavern that is slimy all throughout.

(Nose).

I can run but not walk. The thought is not far behind me. (Nose).

Yoki: "I can breathe but never talk, I can run but never walk, I can be picked but never be chosen. What am...?"

Bu o'rinda burunning tekis qismi tekislikka, bo'rtma qismi esa yer haydayotgan qo'shga o'xshatilgan. Burunning nafas olishi, ammo gapira olmasligi, yugurishi, biroq yura bilmasligi aytilgan.

Tekis joyda qo'sh to'la. (Burun).

Javobi "**burun**" bo'lgan bu kabi topishmoqlarda insonning ushbu tana a'zosi "ikki darchaga, bir kundaga, yer haydayotgan qo'shga mengzalishi yashirin ifoda etilgan.

**Quloq** haqidagi topishmoqlarda ham ko'pincha "teshik" so'zi alohida o'rin egallaydi. Bu bilan quloqning teshigi bo'lishi unga xos asosiy belgi ekani yodga solinadi. Masalan:

Bir teshikda hamma olam. (Quloq).

A Whole world in one hole. (Ear).

Yana:

My timpani play a rhythmic song,

With hammer on anvil I play along.

Down my canal no ship sets course

And I have a stirrup that fits no horse.

What am I? (**An ear**).

Bu topishmoqlarda quloq bitta teshik orqali ko'p vazifani bajara olishiga e'tibor qaratilgan. Masalan, u bolg'a va sandon bilan musiqa (hushtak) chalishi mumkinligi ifodalangan.

Topishmoqlarda quloq bilan ko'z harakatiga ko'ra bir-biriga zid qo'yiladi.

Eshitadi, ko'rmaydi, Ko'radi, eshitmaydi. (Quloq, ko'z).

Bunday mazmundagi topishmoqni inglizlarda ham uchratish mumkin:

It hears everything and says nothing? (An ear).

Topishmoqda quloq faqat eshinishi, gapira olmasligi bildirilmoqda.

Quyidagi topishmoqda quloq bilan birga **og'iz**, **miya** nomi yashiringani kuzatiladi:

Biri so'zlar, biri eshitar, Biri uni ipday pishitar.

Bunda so'zlovchi – og'iz, eshitar – quloq, ip pishituvchi esa miya ekaniga ishora qilinmoqda.

**Miya** haqida yaratilgan alohida topishmoqlar ham mavjud. U haqdagi ingliz topishmoqlaridan birida shunday deyiladi:

I have billions of eyes, yet i live in darkness.

I have millions of ears, yet only four lobes.

I have no muscle, yet i rule two hemispheres. (Brain).

Miyaning qabariq burmalari milliard ko'z deya tasvirlangan va u mushaklarsiz boshdagi yarim sharni qanday boshqara olishidan hayratlanish holati ifoda etilgan.

**Og'iz** haqidagi topishmoqlar ham har ikkala xalqda mavjud. Inglizlarning shunday ayrim topishmoqlari "Sodda so'roq gap shaklida qurilgani kuzatiladi": "What does the "m" in "wom" stand for?" (Mouth).

O'zbek xalqining bunday topishmoqlari ba'zan bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap ko'rinishida tuzilganiga guvoh bo'lish mumkin:

G'aznadir, to'lmas, Bir kun bo'sh bo'lmas. Bo'sh qolsa, turmas, Usiz jon bo'lmas. (Og'iz).

Ushbu topishmoqda og'iz g'aznaga, bo'sh qopga o'xshatilgan. Og'izning g'aznaga o'xshatilishi uchun uning ichida joylashgan oppoq sadafdek, durdek tishlar nazarda tutilgan. Ammo og'iz ba'zan o'raga ham o'xshatiladi:

O'ra, O'ra boshida sho'ra. (Og'iz, mo'ylov, soqol).

Ushbu topishmoqda og'iz o'raga, uning atrofida o'suvchi mo'ylov esa sho'raga qiyoslangan. Ayni paytda bu so'zlar ohangdoshlik kasb etib, qofiya hosil qilgan.

This is in a house. It can move in, out, up and down,  
surrounded by a white picket fence and has red earth and sky.  
What am I? (Mouth, teeth, palate and Tongue).

Ushbu topishmoqda og‘iz bo‘shlig‘i butun boshli uyga qiyoslangan bo‘lib, uning ichidan o‘rin olgan tishlar bu uyning oq pardalariga, til esa undagi qizil to‘shakka o‘xshatilgani bilan e‘tiborni tortadi. Shu orqali topishmoqda tashbeh san‘ati yuzaga kelib, uning badiiyatini ta‘minlagan.

Og‘iz somatizmi bilan boshlangan quyidagi inglizcha topishmoq ko‘p predmetli topishmoqlar sirasiga kiradi, chunki uning javobi **“og‘iz”**, ya‘ni **“a mouth”** bo‘lsa-da, unda yana **bosh (a head), til (a tongue), o‘pka (a lung)** so‘zlari ham mavjud:

Has **a mouth**, but cannot drink. Has **a head**, but cannot think. Has **a tongue**, but not **a lung**.  
Some are held and some are hung. (Mouth).

Topishmoqda og‘izning tinglovchi tomonidan eshitilgan so‘zlarni pishitib aytib berish vazifasi alohida e‘tirof etilgan.

Ayrim hollarda og‘iz chelakka o‘xshatilsa, uning ichidagi til esa baliqchaga yoxud og‘iz kichkina oxurchaga-yu uning ichidagi tishlar mixlarga qiyoslanadi:

Chelakcha, Chelakcha ichida baliqcha. (Og‘iz, til).

Kichkina oxurcha, Ichi to‘la mixcha. (Og‘iz, tish).

Keltirilgan ushbu topishmoqlarning har ikkalasida og‘izning chuqur ko‘rinishda ekanligi asos qilib olingan.

Teg desam, tegmaydi. Tegma desam, tegadi. **(Lab)**.

I can be flipped and broken but I never move.

I can be closed, and opened, and sometimes removed. **(Lips)**.

What flowers can be found between the nose and the chin? (Tulips – get it? “Two lips”).

**“Lab/lips”** haqidagi ushbu topishmoqda faqat bitta somatizm nomi yashiringan. Shuning uchun uni bir somatizimli topishmoqlar jumlasiga kiritish mumkin.

**Til** haqida yaratilgan topishmoqlar ham alohida turkumni tashkil qiladi. Til haqidagi topishmoq variantlarida og‘iz bo‘shlig‘i temir qo‘rg‘onga va uning ichidagi til esa qizil toychoqqa yoki, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, og‘iz og‘ilga, til esa qizil buzoqqa, jiyronchaga, qo‘y go‘shiga ham o‘xshatiladi. Jumladan:

Temir qo‘rg‘on ichida, Qizil toychoq o‘ynaydi. (Til).

Qizil buzog‘imni og‘ildan haydasam, chiqmaydi. (Til).

Uy ichida qizil go‘sh. (Til).

Ushbu topishmoqlarda tilga nisbatan qizil sifatlashingning doimiy epitet sifatida qo‘llanayotgani e‘tiborga loyiq. Bunday holat til to‘g‘risida yaratilgan inglizcha topishmoqlarga ham xosdir:

“Red meat inside the house”. (Tongue). Demoqchiki, og‘iz bo‘shlig‘i bir uy, undagi til esa qizil go‘shdir.

Til haqida yuqorida keltirilgan topishmoqlarda birorta somatizm qo‘llanilmagan, lekin til haqida shunday topishmoqlar borki, ularda og‘iz somatizmi qo‘llanganligini kuzatish mumkin:

Hamma vaqt og‘zimda, Hech yuta olmayman. (Til).

O‘ra, O‘raning yuqorirog‘i sho‘ra, Sho‘raning yuqorirog‘i buloq, Buloqning yuqorirog‘i chiroq, Chiroqning yuqorirog‘i qalam, Qalamning yuqorirog‘i changal.

Quyidagi topishmoqda bira to‘la olti somatizm yashiringan. Bular **og‘iz, burun, ko‘z, qosh, peshona, soch** kabilardir.

Hovuzcha, Hovuzcha ustida buloqcha, Buloqcha ustida chiroqcha, Chiroqcha ustida qalamcha, Qalamcha ustida ayvoncha, Ayvoncha ustida **chakalakzor**.

Ushbu topishmoqning javobi **og‘iz (hovuzcha), burun (buloqcha), ko‘z (chiroqcha), qosh (qalamcha), peshona (ayvoncha), soch (chakalakzor)**.

**Barmoqlar** haqidagi topishmoqlarda barmoqning beshta ekaniga alohida e‘tibor qaratiladi. Ular beshta qashqar otga, beshta yosh og‘a-iniga, katta-kichik beshta o‘rtoqqa, beshta o‘g‘ilga, beshta bolaga, beshta oynaga, beshta kasovga, beshta quvyog‘ochga, beshta botirga o‘xshatilgani namoyon bo‘ladi.

Katta-kichik besh o‘rtoq, Uyushsa bo‘lar to‘qmoq. (Barmoqlar).

Barmoqlar haqida topishmoq ingliz xalqida ham mavjud:

Long and thin red within, with a nail at the end. (Fingers).

Ingliz va o'zbek topishmoqlarida qo'l va barmoqlar ko'pincha bir oilaga, bir ota-onaning ahil farzandlariga qiyos etiladi: Bir otadan besh o'g'il. (Qo'l, barmoqlar). Five sons in one father. (Hand, fingers).

Ko'rinyaptiki, o'zbek va ingliz topishmoqlarining har ikkalasida qo'l barmoqlari bir otaning besh o'g'li deb ta'riflanmoqda. Yana boshqasida ikki qo'lning (kaftlarning) onaga, undagi barmoqlarning esa bolaga (farzandlarga) qiyoslangani kuzatiladi:

**Tirnoq** haqidagi topishmoqlarda tirnoqning nafaqat muz va oynaga balki oyga o'xshatilgani ham kuzatiladi.

O'nta og'a-ini boshida, O'nta oy tushib ketdi. (Barmoqlar, tirnoq olish).

Bunda o'nta barmoq o'n nafar og'a-iniga va uning bosh qismidagi tirnoqlar esa o'nta oyga tenglashtirilgan.

Topishmoqlar orasida **oyoq** haqida yaratilganlari ham alohida turkumni tashkil qiladi. Oyoq insonning yurish-turishini ta'minlovchi organ sifatida uning hayotida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun u haqdagi topishmoqlarda ko'pincha oyoqning tayanch va harakat organi ekani ta'kilanadi:

Tursang turar, Yetsang yotar. (Oyoq).

I'm something with five digits, but I'm not a hand,

When you walk along the beach, I leave the print in the sand. (Foot).

Keltirilgan topishmoqning ingliz tilidagi namunasida oyoqning ham qo'l kabi besh barmoqqa egaligi, lekin u qo'ldan farq qilishi, plyajda tuproiga qadam qo'yganda undan o'ziga xos iz qolishi qayd etilgan.

**Kindik** haqida ham kam bo'lsa-da, topishmoq uchraydi. Unda kindik taqron yerda qolgan toy iziga o'xshatilgan:

Taqron yerda toyning izi. (Kindik).

Kindik haqida ingliz tilida o'g'il va uning otasi o'rtasida bo'lib o'tgan quyidagi savol-javob keltirilgan: "One day a son walked up to his father and pointed to his stomach. "What is this?" His father replied, "It is your belly button". Everyone gets this after being born". Curious, the boy asked: "Do you have one?" The father replied no. How could this be?

Answer

The father was Adam. The belly button was used to feed the baby in the prenatal stage. If Adam was the first man he would have not been born and not needed a belly button. (Belly button).

Bu matnda **stomach – oshqozon** va **belly button – kindik** somatizmlari qo'llanilgan.

**Soch o'rimi** haqida ham topishmoqlar bor:

Shundan bora berdim to'da qamish, Uning adog'ida bir bo'lak qamish,

Uning adog'ida shamchiroq, Uning adog'ida ikki buloq,

Uning adog'ida to'yimas quduq. (Soch, qosh, ko'z, burun, og'iz).

Ushbu topishmoqda birorta somatizm qo'llanilmagan bo'lsa-da, ammo uning tarkibida beshta somatizm yashiringan. Bular: soch – to'da qamish, qosh – bir bo'lak qamish, ko'z – shamchiroq, burunikki buloq, og'iz – to'yimas quduq.

## XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek topishmoqlari mazmunan va shaklan yaqinlik kasb etishida ularda qo'llangan somatizmlarning alohida o'rni bor. Topishmoqlarda somatizmlarning goh o'z, goh ko'chma ma'noda kelishi kuzatiladi. Ularda somatizmlarning ko'pincha metaforik shartli ko'chim asosida keltirilgani namoyon bo'ladi. Topishmoqlar bir yoki bir necha somatizm ishtirokida shakllangan bo'lishi bilan e'tiborni tortadi.

## Iqtiboslar / References / Сноски

[1] Gadoeva M.I. Features of connotative meaning of somatisms as part of phraseological units // International Journal on Integrated Education. Volume 3, Issue III, March, 2020. – P. 73-78.

[2] Gadoeva M.I. Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures // Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal. ISSN:2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. – P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 – 5,599).

[3] Gadoeva M.I. Expression of the somatizms "mouth", "ear", "nose", "tongue" in the system of different languages // Novateur Publications JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 ± 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. -2021. – P.125-130. (JIF –7.223). <https://cyberleninka.ru/article/n/no-body-is-perfect->

[4] Gadoeva M.I. Lexico-semantic fields of “eye” in English and Uzbek languages //Academicia. An International multidisciplinary Research Journal. ISSN (online): 2249-7137. Vol. 11, Issue 10, October. <https://saarj.com> DOI NUMBER 10.5958/2249-7137.2021.02176.5. -India, 2021. – P. 872-879. (Impact Factor: SJIF 2021 – 7.492)

[5] Gadoeva M.I. Semantics of somatism in blessings of English and Uzbek cultures // Web of Scientist: International Scientific Research Journal Open Access, Peer reviewed Journal. ISSN: 2776-0979. Volume 2, Issue 11, November, 2021. – P. 269-276. (Impact Factor: SJIF 2021 – 5,599).

[6] Gadoeva M.I. Expression of the somatizms "mouth", "ear", "nose", "tongue" in the system of different languages // Novateur Publications JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN No: 2581 – 4230. Volume 7, Issue 11, Nov. -2021. –P.125-130. (JIF - 7.223).

[7] Gadoeva M.I. Lexico-semantic Classification of Somatizms in Phraseological Funds of English and Uzbek Languages // Eurasian Research Bulletin. Open Access, peer research journal. – Belgium, 2022. –V.4. –P.140-145. [www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org). (JIF – 7.995).

[8] Gadoeva M.I. Significant features of somatic vocabulary // Namangan davlat universiteti axborotnomasi. – Namangan, 2021. -№12. –B. 411-416. (10.00.00; №26)

[9] Gadoeva M.I. The Expression of Somatizms in English and Uzbek Proverbs // European Conference on Natural Research. <http://papers.onlineconferences.com/index.php/titfl/issue/view/Stockholm>. –Sweden, 2021. – P. 36-41.

[10] Gadoeva M.I. Polysemy of Somatizms in English and Uzbek Languages // International Conference on Multidisciplinary Research and Innovative Technology's. November 11th, <https://academiascience.org/>. –India. 2021, – P. 87-90.

[11] Gadoeva M.I. Background analysis of somatic phraseological units in Uzbek. //Proceeding of International Conference on Research Innovation In Multidisciplinary Sciences, Hosted From New York. [www.econferenceglobe.com](http://www.econferenceglobe.com). – USA. 2021. – P. 297-300.

[12] Gadoeva M.I. Interpretation of “head-bosh”, “foot-oyoq” and “heart-yurak (qalb)” in English and Uzbek languages // Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference (11 November) ISSUE 5. – Copenhagen. 2021. – P.61-65.

[13] Firuza N. English Phraseological Units With Somatic Components //Central Asian Journal Of Literature, Philosophy And Culture. 2020. – T. 1. -№1. – C. 29-31.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

# «MA'MUN SCIENCE» JURNALI

2 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 2, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 2, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000